

ARPANING ASOSIY SO‘RUVCHI ZARARKUNANDALAR BILAN ZARARLANISHI HAMDA DON HOSILDORLIGI VA SIFAT KO‘RSATKICHLARIGA TA‘SIRI

Ahmedova Mehriniso G‘ayrat qizi, magistr

<https://orcid.org/0009-0007-1892-1691>

Norbo‘tayevo Abror Alisher o‘g‘li, assistent

<https://orcid.org/0009-0009-6026-8475>

Nasirov Baxtiyor Saloxiddinovich, professor

<https://orcid.org/0009-0004-9322-9580>

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya: Arpaning asosiy so‘ruvchi zararkunandalar bilan zararlanishi haqida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: arpa zararkunandalat. qarshi kurash, hosildorlik.

Аннотация. Предоставить информацию об основных сосущих вредителях ячменя.

Ключевые слова: вредители ячменя. бороться против борьба с, производительность.

Abstract. Provide information on the main sucking pests of barley.

Keywords: barley pests. fight against, productivity.

Kirish. G‘allazorlarda zararkunanda hasharotlar, kasalliklar va begona o‘tlar paydo bo‘lishi muddati bir vaqtga to‘g‘ri kelganda insektitsid, fungitsid va gerbitsidlarni qo‘shib ishlatish yaxshi samara berishi bilan birga, ortiqcha sarf-xarajatlar tejab qolinadi.

Zararli xasvaning rivojlanish dinamikasi va zararini o‘rganish bo‘yicha S Mirzaeva., A Mamadaliev., O Qobulovalarning ilmiy tadqiqotlarida, sadoqlarni zararkunanda bilan zararlantirish o‘simlikning tuplanish fazasining oxiri va naychalash fazasining boshlarida amalga oshirildi. Tajriba natijalari va tahlillariga ko‘ra yumshoq arpaning Bobur va Andijon-2 navlari asosiy so‘ruvchi zararkunanda hasharotlarga nisbatan chidamligini aniqlagan.

A.A.Urazbaev., Z.A.Po‘latovlarning 2012 yil yog‘ingarchilik miqdori ko‘proq qismi (mart-aprel oylarida bo‘lganligi kuzatildi. Arpa tripsi havo harorat yuqori va quruq kelgan yillari arpaga ko‘proq zarar yetkazib, rivojlanishi ham tez bo‘lganligini kuzatgan.

Arpa ekilgan variantlarda shiralarning soni 1,4 marta, tripsning soni qismini tashkil etuvchi afidofag-koksinellidlar-Coccinellidat oilasi (xonqizi hamda storus) va hammoxo‘r oltinko‘zning zichligi g‘o‘za qator oralariga ekilgan arpazorlar ichida esa 2,3 marta ortiq bo‘ladi.

Tripslarning yetuk zoti asosan arpada oziqlanadi. Tripslarni zarar keltirishi arpaning nay tortish va boshog‘lanish davrlarida yuz beradi. Tripslar arpa boshog‘lanishidan oldin ularning 5-6-barg etida sariq dog‘lar hosil bo‘lishiga sababchi bo‘ladi. Qobiqlarda yoriqlar paydo bo‘lishi bilan tripslar yosh boshog‘larga kirib olib, so‘ra boshlaydi. Ular og‘iz apparati naychasini sanchishi natijasida boshog‘ qobig‘ining rangsizlanishiga, asosining qisqarishiga, boshog‘ shaklining buzilishiga, boshog‘ oyoqchasining buralishiga olib keladi.

Trips zararkunandalarining hosildorlikka ta‘siri o‘simliklarni zararlash tezligiga va miqdoriga bog‘liq, tripslarni zararlashini baholashda 3-balli shkaladan foydalaniladi: 1-ball-kam zararlangan, boshog‘ o‘qi buralgan, oq boshog‘lilik yo‘q; 2-ball o‘rtacha zararlangan, boshog‘ o‘qi buralgan, boshog‘ning uchki qismida oq boshog‘lilik kuzatiladi; 3-ball- kuchli zararlanish, boshog‘ o‘qi buralgan 1/2 yoki 1/3 qismida oq boshog‘lilik kuzatiladi. Avtorning kuzatishicha, Moldoviyada arpa asosan 1-balli zararlangan, 2-balli zararlanish juda kam (14-36 %), 3-balli zararlanish esa uchramaganligini ma‘lum qilgan.

V.I.Tanskiyning (1961; 1965) ma‘lum qilishicha, arpaning boshog‘ zararlanishi, boshog‘lanishni orqada qolishi va boshog‘ shakli o‘zgarishi butun o‘lkalarda kam uchraganligini kuzatgan.

Har doim ham tripslarni zararini arpani zararlanishiga qarab baho berib bo‘lmaydi, chunki tripslar qanot chiqarishi bilan arpada oldin boshog‘ tortuvchi yovvoyi o‘tlarda ko‘p yillik begona o‘tlarda, javdarda ham oziqlanishini (R.N.Fisechko) ma‘lum qilgan.

M.A.Volodichev ta‘kidlashicha, tripslarning zarari ularning ko‘chish vaqtiga, o‘simliklarning o‘sinh davriga, o‘sinh sharoitiga bog‘lab o‘rganilmagan. Voyaga yetgan tripslar zarar keltirishining yaxshi o‘rganilmaganiga sabab, faqatgina ularning o‘lchamlari kichikligi emas, balki ular ta‘sirida yo‘qotilgan hosilni aniqlash hisobiga qiyinlashadi.

Don shakllanishi va donning sut pishish davri boshida L.N.Jichkin., V.G.Kaplinlarning ma‘lumotlarida trips lichinkalarining 80-90 % i boshog‘ qiltig‘i va bo‘sh boshog‘da to‘planadi. Sut pishish oxirida, 40 % lichinkalar shu joyda qoladi, qolganlari donga o‘tib oladi.

V.I.Tanskiy., Yu.B.Shuravenkovlar trips lichinkasi asosan arpa doniga zarar keltiradi. Hozirgi vaqtda uning zarari 3-pog‘onaga bo‘lingan: I-kam darajada zararlanish-don ariqchasida kulrang dog‘lar bo‘lishi, yengil rangsizlik aniqlangan; II-o‘rtacha darajada zararlanish - don ariqchasi chuqurlanishi, kengayishi hamda trips so‘rgan joyida kulrang dog‘lar paydo bo‘lishi aniqlangan; III-kuchli darajada zararlanish-don ariqchasi kengayishi va chuqurlanishi, lichinka og‘iz apparati naychasini sanchgan joylarida don shakli o‘zgarishini aniqlagan.

N.N.Gorbunov (1990) tajribasida insektitsid bilan dorilangan va dorilanmagan donlarni ajratib oldi. Keyin urug‘larni uch xil fraksiyaga ajratib oldi: mm hisobida-2x20 (mayda); 2,2x20 (o‘rtacha); 2,5x20 (yirik). To‘rtinchi fraksiya qilib aralash urug‘larni (2-2,5x20) oldi. Bundan shu narsa ma‘lum bo‘ldiki xar bir fraksiyaga qarab hosildorlikni kamayishi aniqlandi. Laboratoriya tajribasi shuni ko‘rsatdiki, insektitsid bilan dorilanmagan uchastkalardan olingan urug‘larni unuvchanligi va o‘sinh energiyasi pasayganligi ma‘lum bo‘ldi.

Zararlangan donlarni birlamchi ildizlari uzunligi 5,7-13,5 % ga qisqa bo‘ladi. Zararlangan donlarni ildiz sistemasining umumiy uzunligi va og‘irligining kamayishi dala sharoitida hosilning (11

% gacha) kamayishiga olib keladi. G‘allada birlamchi ildizning ahamiyati juda katta, ayniqsa, ob-havo quruq kelgan yillari birlamchi ildizlarni uzunligiga va ularni ishlash qobiliyatiga qarab hosildorlik darajasi belgilanadi.

Hosil element tarkibini analiz qilinganda, shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, trips zararlagan urug‘larni unib chiqishi 3,1-6,2 % ga, ularni umumiy va hosil poyalari nisbatan kam bo‘lishi aniqlandi. Hosil beradigan poyalarning qalinligi 0,3-0,2 % ga, boshqadagi donlar soni 3,8-8,8 % ga kam bo‘lganligini aniqlagan.

Belolipeskiy, (1992) ning ta‘kidlashicha ekinlarning shiralar bilan qanchalik kuchli zararlanishi barglarning buralib qolishi, o‘shishdan orqada qolishi va donlarning to‘liq yetilmasligiga sabab bo‘ladi.

Sh.T.Xodjaev, A.A.Xakimov (1991) larning ma‘lum qilishicha shiralarning zarar keltirish darajasi ekinlarning qaysi fazasida zararlanganligiga bog‘liq. Agar o‘simlik shiralar bilan qancha kech zararlansa, yo‘qotilgan hosil shuncha kam bo‘ladi.

A.Sh.Hamraev, K.Nasriddinov (2003) larning o‘simlik shiralari va ularning tabiiy kushandarlari nisbati bahorda 15:1 (shira: entomofag), yozda esa 25:1 bo‘lganda entomofaglar zararkunanda miqdorini iqtisodiy zararsiz mezonda ushlab turishini ta‘kidlagan.

F.Ya.Yarkulov (2002) ning arpa boshqoq tortish davrida shiralar bilan zararlanishi 21-28 %, arpada esa zararlanish 19-39 % bo‘lganda 1m² maydonda yirtqich entomofaglarning soni 38-56 dona, parazitlar bilan zararlangan shiralar esa 22-39 % ni tashkil qilganligini ma‘lum qilgan.

Bugungi kunda Respublikamiz arpachiligida uning barqarorligini ta‘minlash, don sifatini yaxshilash muammolarining asosiy yechimi tashqi muhitning noqulay omillarga, kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahsuldor, don sifati bo‘yicha kuchli va qimmatbaho

arpa talablariga javob beradigan navlarini yaratish va joriy etish, ekinning mineral oziqalarga, ayniqsa azotli o‘g‘itlarga talabini butun o‘suv davri davomida taminlanib turish va boshqa agrotexnologik tadbirlarni yuqori saviyada o‘tkazilishiga bog‘liqdir.

G‘alla ekinlari bayroqcha barg chiqargandan boshlab to sut pishish davrigacha dalalarda zararkunanda hasharotlar va kasalliklar bor yoki yo‘qligini aniqlash maqsadida nazorat qilinadi. Zararkunanda hasharotlarga qarshi kurash choralarini boshlash g‘allaning naychalash fazasidagi ko‘rsatkichlariga amal-qilgan holda o‘tkaziladi.

G‘alla zararkunandalariga qarshi kimyoviy va biologik vositalarni qo‘llashning xo‘jalik va iqtisodiy samaradorligi o‘rganish asosida qo‘llangan kimyoviy va biologik vositalarning xo‘jalik va iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi.

Dunyo ilmiy adabiyotlaridan ma‘lumki, boshqoqli don ekinlariga 300 turdan ortiq hasharotlar zarar keltirsa, shundan 30 turdan ortiqrog‘i ashaddiy zararkunandalardir. Bu zararkunandalar yetishtirilgan hosilning o‘rtacha 15-20 % ini yo‘qotadi. Bundan tashqari, yetishtirilgan hosilning sifati sezilarli miqdorda pasayadi.

Z.F.Ziyadullaev., M.Qurbannazarov., O.Amanovlar ma‘lum qilishicha, boshqoqli don ekinlariga bir qator hasharotlar zarar keltirishi mumkin. Oziqlanishiga qarab bular so‘ruvchi va kemiruvchi guruhlarga bo‘linadi, so‘ruvchi hasharotlarning zarari oqibatida g‘allada oqsil, kleykovina, va boshqa qimmatli organik moddalarning miqdori kamayib ketganligini ma‘lum qilishgan.

L.N.Jichkin., V.G.Kaplinlar tadqiqotlarida so‘ruvchi zararli xasva bilan turli arpa navlari tuplash fazasida 5-17 % ga, naychalash fazasida 10-25 % ga, boshqoqlash fazasida 16-33 % ga, sut pishish fazasida 25-46 % gacha o‘simlik poyalari zararlanishini aniqlagan.